



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### AMIR TEMUR TEMURIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI

Maxamatjanov Abror Madamin o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti tarix fakulteti 4 bosqich talabasi

#### Anotatsiya

Ushbu tezisda XIV-XV-asrlarda yirik imperiya tuzgan o`zbek davlatchilik taixida yangi davrni boshlab bergen Temuriylar sulolasining kelib chiqish tarixi bat afsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:**Amir Temur , Mo‘g‘ullar, fotix , Turk , Kesh, Chingizzon, musulmon

**Amir Temur** (Eski turkcha: تیمور امیر – Amir Temur) (1336-yil 9-aprel – 1405-yil 18-fevral) – o‘rtalarning buyuk turk askari va qo‘mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O‘rda, Mamluq sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonli davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlar yengishi ortidan musulmon olamining mutloq yetakchisi, yeri 4,4 mln km<sup>2</sup> ga yetishgan 14-yuzyillikning eng kuchli davlati quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog‘ida biror urushni yutqazmagan qo‘shinboshi, tarixda ko‘rilgan uchta buyuk harbiy-taktik lashkarboshilardan biri, Temuriylar uyg‘onish davri yaratuvchisi, ilm-fan, me’morchilik, san’at va adabiyot homiysidir.

**Temuriylar sulolasi**, o‘zini Ko‘ragoniy deb ham atagan, diniy jihatdan sunniy musulmon<sup>1</sup> sulola millat jihatidan esa turk urug‘i<sup>2</sup>, fotix Temur avlodidan bo‘lgan. Ko‘ragoniy“ so‘zi mo‘g‘ulcha „Kuragan“ so‘zining mahalliy turkiy xalq tilida o‘zgartirilgan shakli bo‘lib, „kuyov“ ma’nosini bildiradi. Bu sulola tomonidan qo‘llanilgan sharafli unvon edi, chunki Temur Chingizzonning bevosita avlodni Saroy Mulkxonimga uylangan edi. Temuriylar sulolasi tarixda ikkita muhim imperiya – Eron, Iraq, Suriya va O‘rtal Osiyoda joylashgan Temuriylar imperiyasi(1370-1507) va Hindiston yarimorolida joylashgan Temuriy-Boburiylar imperiyasini tuzdilar(1526-1857). Temuriylar sulolasining kelib chiqishi Mo‘g‘ullar imperiyasining asoschisi Chingizzonning qo‘shinining qoldiqlari

<sup>1</sup> Maria E. Subtelny, Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Persia, Vol. 7, (Brill, 2007), 201.

<sup>2</sup> B. F. Manz, "Tīmūr Lang", in Encyclopaedia of Islam, Online Edition, 2006



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bo‘lgan Barlas nomi bilan mashhur turk-mo‘g‘ul qabilasiga borib taqaladi. O‘rta Osiyoni mo‘g‘ullar bosib olgandan so‘ng, baraslardan hozirgi Qozog‘istonning janubiy qismidagi Chimkentdan Taraz va Olmaotagacha bo‘lgan hududlarga joylashdilar, keyinchalik bu yerlar bir muddat Mo‘g‘uliston – fors tilida „Mo‘g‘ullar o‘lkasi“ nomi bilan mashhur bo‘ldi va ular bilan aralashib ketdi. Darajasi mahalliy turk va turkiy tilli aholi bilan bo‘lgan, shuning uchun Temur hukmronligidan ancha oldingi davridayoq barloslar til va odatlar jihatidan butunlay turk edilar. Temurbek shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o‘ttiz oltinchi yilda (8.04.1336), o‘n ikki hayvonli Turk yilligiga ko‘ra Sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug`ilgan.<sup>3</sup> Otasi Amir Tarag‘ay (o‘rta chog‘ turkchasida Tarag‘ay – qoraquyruq qushi) barlos qabilasining beklaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urug‘idan birining yetakchisi edi.<sup>4</sup> Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusining taniqli beklaridan biri bo‘lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Amir Tarag‘ay yillik Ili daryosi bo‘yida Xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga chaqirilgan va bunday yig‘inlarda qoldirmasdan qatnashgan. Butga topinuvchi o‘laroq tug`ilgan Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusi orasida birinchilardan bo‘lib islom dinini qabul qilgan. Otasi Barqul Noyondek Tarag‘aybek harb va siyosat ishlariga qiziqmagan va asosan islom dinini o‘rganish bilan umrini kechirgan. Temurbek tez-tez qabrini ziyorat qiladigan va keyinchalik qabri ustiga maqbara (1373–1374) qurdirgan Shamsiddin Kulol Tarag‘aybekning piri bo‘lgan . Onasi Takina Xotun va yoki Takina Mohbegim to‘g‘risida bilgilar oz. Zafarnoma (Yazdli Sharafiddin)da yolg‘iz otigina so‘zlanadi. Temur saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan Muyizz al-Ansab (Izzatli nasablar) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh bo‘lgan Chig‘atoy ulusining Yasaur qabilasidan ekanligi yoziladi Temurbekning siyosiy kitobyozar raqibi Ahmad ibn Arabshoh o‘z Ajoyib ul-maqdur fi navaib (fi axbor) at-Taymur (arabcha: تيمور نوائب في المقدور عجائب – o‘zbekcha: Temurdagi taqdirning ajoyibotlar) asarida uning Chingizxonning naslidan ekanligini yozadi Temurbek bilan yuzma-yuz so‘zlashgan Ibn Haldun (1400–01) Temurbek onasini afsonaviy

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir\\_Temur](https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur)

<sup>4</sup> The rise and rule of Tamerlane, B. F. Manz va The Mongol Period B. Spuler 2013-08-30 0010



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

„Avesto“ bahodiri Manuchehrning avlodidan ekanligini aytganini yozadi. 18-yuzyillikda yuzaga chiqqan Temurbek kimligi to‘g‘risidagi kitoblarda Takina Xotun Buxoro „Sadr ash-Sharia“ (Shariat qonunlarini izohlovchi)si Ubaydullo Mahbubiyning qizi o‘laroq tanitiladi. O‘zbek tarixchisi Turg‘un Fayziyez o‘zining „Temuriylar shajarasi“ (Toshkent, 1995) kitobida Temurbekning onasi to‘g‘risida „Jangnomayi Amir Temur Ko‘ragon“ kitobiga tayangan holda Buxoro ulamolarining eng ulug‘i „Sadr ash-Sharia“ning qizi ekanligini bildiradi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Temurbekning turk yoki mo‘g‘ul ekanligi to‘g‘risadagi bilimlar yolg‘iz kunbotar olamidagina tortishmali. Rui Gonsales de Klavixo Temurbekning kelib chiqishini Chig‘atoy ulusining ellariga bog‘lasa, nabirasi Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek nomi bilan tanilgan) „Tarix-i arba ulus“ kitobida Shajarat al-atrak (Turklar kelib chiqishi)ni ko‘rsatadi va unga ko‘ra Temurbek va ota-bobolari Yofas o‘g‘li Turkning bolalari ekanligini aytadi. Temurbek tarixi bo‘yicha 3 salmoqli kitobdan birisi sanalgan Ahmad ibn Arabshohning „Ajoyib ul-maqdur fi navaib at-Taymur“ kitobida bo‘lsa Temurbekni barlos turki ekanligini yoziladi:

Turklarda ham Arablarda bo‘lganidek qabilalar va urug‘lar bordir va har bir qabilada vazir (qabilaboshi) bordir. U o‘z qabilasi ichida yashash tarzi bo‘yicha maslahat beradigan yorituvchi chiroqdir. Ulardan birinchisi Arlot, ikkinchisi Jaloyir, uchinchisi Qavchin, to‘rtinchisi Barlosdir. Temur(bek) to‘rtichisidan chiqqandir.“ (4-bet).<sup>5</sup> Temurbek Turk ekanlididan g‘ururlanar, o‘z o‘rnida o‘ziga qarata aytilgan Mo‘g‘ul so‘zini yomon ko‘rardi.<sup>6</sup> O‘zbek tarix yozuvchilari Temurbekning so‘zsiz turk bo‘lganligini aytib keladi. Temurbekning o‘zi yozganligi aytiladigan Mulfazoti Temuriy (Temur qissalari yoki Temur tuzuklari) kitobida Tarag‘aybek o‘g‘li bilan so‘zlashganda turk kelib chiqishli ekanligini aytgani yoziladi. Turli o‘rganilishlar natijasida Amir temurning Barlos urugidan ekanligi va bu urug‘ 13 asrda tyron zaminiga ko‘chib kelishi orqali turkiylashib ketishi va bu urugdan bo‘lgan Amir temurning siyosat maydoniga chiqish jarayoni ayni movounhharda yetilgan notinch vaziyatga togri keldi. temuriylar davlati gullab yashnagani va obonlashtirish ishlari siyosiy va marifiy ishlarga ulkan etibor berilganligi haqida aytishimiz joizki bunga Amir temurning Temur tuzulkları va turli manbalar. guvohlik. beradi. “Biz kim mulki

<sup>5</sup> <https://www.vialibri.net/years/books/13654327/1875-arabic-manuscript-ibn-arabshah-ahmad-1389-ajaib-al-maqdur-fi-nawaib-al>

<sup>6</sup> Yusuf Husayn Xon, Two studies in early mongol history, 1976



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

turon, Amiri turkostonmiz,Turk xalqlaring bosh bog'ini .Kabi iboralari ham temuriylar davlati qanchalik qudratli turkiy davlat ekanligini ochib beradi

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulahad Muhammadjonov, Amir Temur va temuriylar sultanati "Qomuslar bosh tahririyati". Toshkent. 1994. 38 b.
2. Yusuf Husayn Xon, Two studies in early mongol history, 1976
3. Temur tuzuklari. "O'zbekiston". Toshkent. 2016
4. B. F. Manz, "Tīmūr Lang", in Encyclopaedia of Islam, Online Edition, 2006
5. Настич В. Н. Денежное хозяйство Южного Казахстана в XIX веке (по документам „Туркестанского архива“) // Ориенталистика. 2020.